

KORRUPSIYA ILDIZLARI: O'TMISH VA BUGUN

*Ilmiy rahbar: Falsafa fanlari doktori (Phd) dotsent Xojiyev.T.N
O'zMU Ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'qitish metodikasi
(ma'naviyat asoslari)I kurs magistr talabasi Qahramonova Z.*

Annotatsiya: Ushbu maqolada korrupsiya va va uning kelib chiqishi hamda uning qisqach tarixi va ildizlari haqida berilgan. Bundan tashqari korrupsiyaning o'timishda qanday ko'rinishda bo'lgani va bugun dunyo hamjamiyatining hayotida qay ahvolda ekanligi haqida qisqacha ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlari: Korrupsiya, “Artaxashstra”, BMT, Transparency International tashkiloti (CPI), hisobotlar.

Annotation: This article provides an overview of corruption and its origins, as well as a brief history and roots. In addition, a brief overview of how corruption has appeared in the past and what its current state is in the life of the world community.

Key words: Corruption, “Artaxashstra”, BMT, Transparency International (CPI), reports.

Korrupsiya haqida gaplashar ekanmiz biz uning ancha oldin ya'ni qadim zamonlardan beri mavjud ekanligini bilamiz. Korrupsiya jamiyat taraqqiyotida turli bosqichlarida har xil shakllarda namoyon bo'lgan va bo'lmoqda. Ayni vaqta biz korrupsiya o'zi nima ekanliga aniq bir ta'rif berib ko'ramiz. Korrupsiya (lotincha corrupf-aynish, poraga sotilish) – mansabdor shaxsning o'z mansabi bo'yicha berilgan huquqlarni shaxsiy boyish maqsadlarida bevosita suiste'mol qilishidan iborat amaliyot. Shuningdek, korrupsiya – shaxsning o'z mansab yoki xizmat mavqeidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o'zga shaxslarning manfaatlarini ko'zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanish, xuddi shuningdek bunday nafni qonunga xilof ravishd taqdim etishdir. Mansabdor shaxslarni sotib olish, ularning poraga sotilishi ham korrupsiya deyiladi. Korrupsiya nihoyatda ijtimoiy-siyosiy vayronkor kuch hisoblanadi. Uning oqibatida milliy iqtisodiyotga putur yetadi, ijtimoiy tengsizlik chuqurlashadi, xalqning davlat boshqaruvi organlariga ishonchi yo'qaladi, uyushgan jinoyatchilik kuchayadi, jamiyatda ma'naviyati izdan chiqib boshlaydi. Korrupsiya oqibatida kelib chiqadigan noxush hodisalar ro'yxatini yana ham davom ettirish mumkin. Korrupsiya buzg'unchilik tabiatiga ega ekani uchun ham jamiyat qadim zamonlardan beri unga qarshi kurashib kelyabdi. Korrupsiyani ildizi yuqoria aytib o'tganimizdek qadim zamonlarga borib taqaladi. Uning kelib chiqish sabablari turlicha bo'lishi mumkin. Biz ularni keltirib o'tamiz:

1.Inson tabiati va manfaati.

Inson tabiatida o'z manfaatlarini himoya qilish va resurslarni boshqarishda ustunlikka ega bo'lish istagi mavjud. Bu istaglar haddan tashqari bo'lganida, noqonuniy yoki axloqsiz usullar bilan maqsadga erishishga sabab bo'ladi.

2.Hokimiyat va nazoratning cheklanganligi.

Markazlashgan boshqaruv yoki nazoratning yo'qligi korrupsiya paydo bo'lishining asosiy sabablaridan biri hisoblanadi. Albatta qadimda birdaniga boshqaruv tizimi va apparati shakllanmagan. Buning natijasida fuqarolar o'zlaricha ularga berilgan vakolatni suiste'mol qila boshlagan.

3.Iqtisodiy tengsizlik.

Jamiyatda boy va kambag'allar o'rtasidagi kata tafovut korrupsiyaning keng tarqalishiga olib kelishi mumkin, ya'ni boylar o'z ta'sir doiralarini kengaytirish uchun noqonuniy yo'llarni izlashsa, kambag'allar esa mavjud tizimdan o'z ulushlarini olishga intilishadi.

4.Siyosiy tizimlarning zaifligi.

Siyosiy tizimlar yoki davlat boshqaruvi appartining yetarlicha mustahkam emasligi korrupsiyaning ildiz otishiga sharoit yaratadi. Qonunlarning sustligi, javobgarlikning yo'qligi va shaffoflikning pasayishi bunday holatlarni kuchaytirdi.

Ta'rixiy ma'lumotlarga ko'ra korrupsiyaga qarshi kurash ilk bor millodan avvalgi XXIV asrda Mesopotamiyaning Lagash degan shahar-davlatida boshlangan, lekin, achinarli jihati shundaku unga qarshi qilingan sa'y - harakatlar barchasi zoya ketgan. Keyingi zamonlarda ham korrupsiyaga qarshi qancha-qancha kurashlar yuz berdi, lekin ular ham besmar yakun topdi.

Eng kata va o'zgacha bo'lgan korrupsiyaga qarshi harakatlar insoniyat tarixida qaysiki, korrupsiyani tugatishning yo'llari va huquqiy asoslari Hindistonda yaratildi. Bundan 2,5 ming yil avval yozilgan "Artxashstra yoxud Siyosat ilmi" kitobi davlatni boshqarish va xo'jalik yuritish mavzusiga bag'ishlangan bo'lib, o'sha davrning siyosiy va iqtisodiy qomusi sifatida dunyoga keldi. Bu asarga davlatni tuzish, boshqarish va uni rivojlantirishning huquqiy asoslari deb ham qarash mumkin. Kitob muallifi sifatida brahman kautile nomi (u Chanakaya ismi bilan ham mashhur) zikr etiladi. "Artxashstra" ning 26-bo'limi korrupsiyaga bag'ishlangan. Bo'limda korrupsiya "o'zlashtirish" iborasi orqali izohlanadi: "Shoxning shaxsiy yoki boshqa mulklariga qo'l cho'zish o'zlashtirishdir. Bu holatda narxi yuqori bo'lgan buyumlarni o'zlashtirilganlik uchun ularni undirib olish, narxi past bo'lgan mulklarni o'zlashtirganlik uchun ularni undirib olish, narxi past bo'lgan mulklarni o'zlashtirganlik uchun ularni qaytarib olish jazolarini tayinlamoq lozim". "Artaxashstra" da poraxo'rlikning 40 ta turi tasnif etiladi. Korrupsiyaning odini olishga javobgar javobgar mansabdor shaxs vaqti-vaqti bilan xalq to'plnadigan joylar va

bozrorlarda quydagicha murojaat qilib turish lozimligi aytiladi: “Biron bir boshliqdan zarar ko’rganlar bo’lsa shu haqda bizga xabar bersinlar”.¹

Islom dinida ham qadimdan pora olish harom qilingan, bu borada hadislar ham jua ko’p. Ulardan biri Paygambarimizning mana bu qarg’ishlaridir: “Pora beruvchiga ham pora oluvchiga ham Allohning lanati bo’lsin!”. Yani ul zot aytadilar: “Pora beruvchini ham, pora oluvchini ham, ikkovi orasida yurib porada vositalichilik qiluvchini ham Alloh la’natlasin!”

XX asrga kelib Shvetsiya, Singapur, Yangi Zelandiya, Shvesariya kabi mamlakatlarda korrupsiya qattiq jilovlashga muvaffaq bo’lindiki, mazkur davlatlar fuqarolar va davati orttirgan tajriba barcha korrupsiyaga qarshi kurashga ruhlantirilmoqda.

Bugungi kunda korrupsiyaning ko’rinishi turlicha bo’loqda lekin hali ham biz bilan jamiyatimizda yashamoqda. BMT ma’lumotlariga ko’ra, hozirda dunyoda har yili 1 trillion AQSH dollari hajmida pora beriladi. Jahon iqtisodiyoti har yili korupsiya tufayli 2,6 trillion dollar mablag’idan ayriladi, bu jahon yalpi ichki mahsulotining 5 % ini tashkil qiladi.²

Xalqaro jihatdan hozirgi paytda Transparency International tashkiloti har yili davlat sektoridagi korrupsiya darajasini baholash uchun Korrupsiyani Idrok Etish Indeksini (CPI) e’lon qiladi. Ushbu indeksda o dan 100 gacha bo’lgan shaklda baholanadi, bunda 0 – yuqori darajaagi korrupsiya, 100 esa – korrupsiyaning yo’qligini anglatadi.

2023-yil uchun CPI natijalari 2024-yil 30- yanvarda e’lon qilinishi rejalashtirilgan.³ Shu sababli hali 2024- yil ma’lumotlari mavjud emas.

2022-yilgi CPI natijalariga ko’ra, dunyodagi eng kam korrupsiyaga ega davlatlar quyidagilar edi:

- Daniya
- Finlandiya
- Yangi Zelandiya
- Norvegiya
- Singapur
- Shvetsiya
- Shvetsariya

Aksincha eng yuqori korrupsiya darajasiga ega davlatlar quyidagilar edi:

- Somali
- Suriya

¹ United Nations Development Programme (UNDP) hisobati:2011-yil.

² <https://www.gazeta.uz/oz/2025/01/14/korrupsiya/>

³ https://kapital.uz/uz/korrupsiyani-idrok-etish-indeksi/?utm_source=chatgpt.com

- Janubiy Sudan
- Venesuela

O'zbekiston esa 2022-yilda 31 ball bilan 180 davlat orasida 126-o'rinni egallagan edi. 2023-yilda es bu ko'rsatkich 180 davlat ichida 33 balni to'plab 121- o'rinni egalladi. Bu 5besh pog'ana ko'tarilganligi va korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tizimlari va amalga oshirilyotgan chora tadbirlar muvaffaqiyatli amalga oshirilayotganidan, shuningdek korrupsiyaga qarshi jinoyatlar uchun qat'iy javobgarlik choralari joriy etilganligi qayd etildi.⁴ Korrupsiya qachon yo'q bo'ladi qachonki har bir inson o'zini-o'zi axloqiy jihatdan tarbiyalasa, doimo halollik va poklikni esdan chiqarmasa alabtt, jamiyatimizdan korrupsiya butunlay yo'qaladi. Uning ildizlarini shundagina biz butnlay sug'irib tashlashimiz mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. United Nations Development Programme (UNDP) hisobati:2011-yil.
2. <https://www.gazeta.uz/oz/2025/01/14/korrupsiya/>
3. https://kapital.uz/uz/korrupsiyani-idrok-etish-indeksi/?utm_source=chatgpt.com
4. <https://www.transparency.org/en/cpi/2023/index/est>

⁴ <https://www.transparency.org/en/cpi/2023/index/est>